

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2022**

**3-son**  
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



### TAHRIRIYAT

	4	Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish – ta'lif sifatini oshirishning asosiy omili
--	---	---



### TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Q. Ibadullayev	6	O'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash
F. Raxmatova	10	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yo'llari
B. Axmadaliyev	13	Oly ta'lif tizimida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning pedagogik zarurati
F. Razzoqov	17	O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashning pedagogik-psixologik asoslari
O. Quchqarova	21	Ayollar ta'limi tarixidan



### TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

J. Xusanov N. Shamsiddinov	25	Geometrik masalani turli yechish usullari yordamida o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirish
H. Sanaqulov D. Alibayev	33	Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish shakllari
A. Nuradilova	38	Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda leksik birliklar semantikasining o'rni
D. Umnov	41	Yosh avlodda iste'molchilik madaniyatini shakllantirishga oid qarashlar tarixidan



### TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

N. Temirov	45	Ta'lim sifatini oshirishda kattalar va mas'ul tashkilotlar oldida turgan vazifalar
R. Astanov	49	Maktab ta'limida ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish orqali ular bilan hamkorlikning sifatini oshirish yo'llari



### ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

M. Ikromova	53	Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda "interaktiv tizer"lardan foydalanish metodikasi
M. Mahmudov	57	Innovatsion yondashuv asosida talabalar pedagogik mahoratini rivojlantirish funksiyalari
F. Karimova	60	Talabalarning kasbiy kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida shakllantirish
Sh. Javliyeva	64	Zamonaviy o'qitish texnologiyalariga asoslangan mutaxassislar tayyorlash tizimi
D. Rabbonayeva	69	O'quvchilarda matnni o'zlashtirish darajasini takomillashtirishda PIRLS tadqiqotining o'rni
R. Eshimov B. Usmonov	74	Umumta'lim maktablari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan multimediali elektron darsliklar yaratish texnologiyalarini takomillashtirish
M. Artikova	77	O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi (9-10-sinflar misolida)



### MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

<b>D. Urinbayeva</b>	82	Navoiy ijodida sharqona STEM yondashuv va uning texnologiyalari dan samarali foydalanish
----------------------	----	--

<b>D. Jo'rayeva</b>	86	Badiiy tafakkur ibtidosini tarbiyalash boshlang'ich mumtoz adabiy ta'limi samaradorligining bosh omili sifatida
---------------------	----	---

<b>F. Kuchkarova</b>	91	Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida o'quvchi-yoshlarda axloqiy sifatlarni shakllantirish
----------------------	----	---

	<b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>	
	<b>A. Amarova</b>	94 Umumiyo o'rta ta'lismuassasasini boshqarishning uslubiy va tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish

	<b>JISMONIY TARBIYA VA SPORT</b>	
--	----------------------------------	--

	<b>L. Xalmatov</b>	98 Jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti
	<b>N. Nazarov</b>	101 O'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi o'rta masofaga yuguruvchilarning funksional tayyorgarligi

	<b>MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI</b>	
	<b>A. Bahriyev</b>	104 Musiqa madaniyati darslarida tinglash faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari

	<b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>	
	<b>Z. Azimova</b>	108 Maktabgacha katta yoshdagি balolarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish omillari

	<b>MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH</b>	
	<b>K. Karimov</b>	112 Professional ta'lismiz pedagog kadrlari malakasini oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari

	<b>TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATI</b>	
	<b>H. Qoraboyev</b>	116 Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda ijodiy topshirqlardan foydalanish
	<b>Z. Bozorova</b>	121 Bolalar kitobxonligini oshirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi

	<b>ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR</b>	
	<b>Sh. Xonqulov</b>	125 Oly ta'lilmuassasalarida raqamli ta'lim muhitini yaratish: afzallik va muammolar
	<b>X. Muxammadjonov</b>	130 Ma'lumotlar manbalaridan sun'iy intellekt bazasini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish

	<b>QIYOSIY PEDAGOGIKA</b>	
	<b>K. Abrorxonova</b>	133 Bo'lajak psixologlarni tayyorlash jarayonini xorij pedagogik tajribasi asosida takomillashtirish

	<b>PSIXOLOGIYA</b>	
	<b>Z. Mamatova</b>	136 Kompyuterlashtirilgan ta'lim psiologiyasining muhim xususiyatlari

	<b>ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ</b>	
	<b>Г. Досбекова</b>	139 Использование нетрадиционных форм общения в развитии дошкольника (совместная деятельность до и семьи)

## PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH – TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI

Bugungi kunda oldimizda turgan eng dolzarb vazifa ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirishdir. Ta'lim oluvchilarni samarali o'qishga, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, ta'limgan o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishga qiziqtirish hamda kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblariga ta'luqli savollarga javob olishlarini ta'minlovchi yo'nalishlar, bilim, malaka va ko'nikmalar berishdir. Ushbu vazifalarni bajarish bevosita pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyaligiga bog'liq.

O'qituvchi – butun hayoti davomida o'qiydigan inson. Shuning uchun o'qituvchilik, murabbiylilik, ustozlik faoliyatini samarali olib borish uchun o'z ustida doimo ishlash, ta'lim-tarbiya berishning yangi metodlari, shakllarini, texnologiyalarini egallahash talab etiladi.

O'qituvchi an'anaviy o'qitish texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarga o'tishi, o'z faoliyatida loyihalashtirish, izlanishlar olib borish, informatsion-kommunikatsion texnologiyalardan foydalananish, interfaol metodlar, faol o'qitish shakllaridan foydalana olishi kerak. Oxirgi yillardagi ilmiy izlanishlarni tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'qituvchining professionalligining va pedagogik mahoratining ajralmas qismi kasbiy kompetentlik deb belgilanmoqda.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi strukturasini, tuzilishini uning kasbiy malaka va ko'nikmalari orqali ochish mumkin. O'qituvchining kasbiy kompentlik modeli deganda, uning kasbiy faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarligining mutanosibligini tushunish kerak. O'qituvchining kasbiy kompentlik modelini to'rtta guruhga birlashtirish mumkin. Bular:

1. O'quvchi shaxsi va o'quvchilar jamoasini o'rganib, ularning yangi bilimlarni faol egallahsha tayyorgarlik darajalarnni aniqlashni, shular asosida o'quvchi shaxsi va o'quvchilar jamoasini rivojlantirish strategiyasini loyihalashni, ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiriruvchi vazifalarni aniq belgilashni bilish.

2. Aniq, mantiqiy yakunlangan pedagogik tizimni ishlab chiqish va amalga oshirishni, ta'lim-tarbiya vazifalar majmuuni rejalashtirishni, ta'lim jarayoni mazmunini asosli ravishda belgilashni hamda ta'limgan shakli, metodlari va vositalarini optimalini tanlashni bilish.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun moddiy, ma'nnaviy-psixologik, tashkiliy, gigienik va h.k. sharoitlarni yaratishni, o'quvchi shaxsini, o'quvchi faoliyatini ta'lim-tarbiya jarayoni obyektidan, ta'lim-tarbiya jarayoni subyektiga o'zgartirish uchun faollashtirishni bilish.

4. Pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholashni, o'z-o'zini, o'qituvchi faoliyati natijalarini baholashni, ta'lim jarayonini tahlil, monitoring qilishni, shulardan kelib chiqib, yangi pedagogik vazifalar majmuuni belgilashni bilish.

Kasbiy kompetent o'qituvchi deb, pedagogik faoliyatni, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiruvchi, ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berishda barqaror

---

yuqori natijalarga erishuvchi o'qituvchi tushuniladi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish deb, ta'lif beruvchining ijodiy individualligini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni ta'lif-tarbiya jarayoniga faollik bilan tatbiq etishni ta'minlashni hamda o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashuvchanlikni shakllantirish nazarda tutiladi.

Ta'limdiagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarining hozirgi bosqichida, bu jarayonlarning barcha subyektaridan nafaqat global o'zgarishlarni tezkorlik bilan qabul qilish, mohiyatini tushunib yetish balki, o'z kasbiy faoliyatlarini qayta ko'rib chiqib, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini tezkorlik bilan rivojlantirishlari zarur bu esa o'z navbatida o'qituvchilarining, rahbarlarning yaqin kelajakdagagi faoliyatlarini ijobjiy bo'lishligini, obro'-e'tiborlarini oshishligini, raqobatbardosh bo'lishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun, pedagoglarning o'z ustilarida muntazam ishlashlari, kasbiy kompetensiyalarini oshirib borishlari dolzarb pedagogik muammo bo'lib qolmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedagogning eng asosiy kasbiy sifati o'qishga o'rghanishni, o'qishga o'rgatishni faqatgina hayoti davomida o'z ustida ishlaydigan, o'qiydigan o'qituvchi amalga oshira oladi.

Pedagoglarning o'z ustida ishlashlari quyidagi faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi:

- uzlusiz malaka oshirish;
- zamonaviy pedagogik, psixologik texnologiyalarni o'rganish;
- metod birlashmalar, pedagogik kengashlar, seminarlar, konferensiylar, master-klasslarda qatnashish, hamkasblar darslariga tashrif buyurish;
- kasbiy yo'nalishga ta'luqli ommaviy axborot vositalaridagi materiallardan xabardor bo'lish;
- pedagogik, metodik adabiyotlarni o'qish;
- kasbiy yo'nalishga ta'luqli internet resurslaridan foydalanish;
- o'z tajribalarini doimiy ravishda namoyish qilish;
- sog'ilom turmush tarziga amal qilish.

Pedagoglarning o'z kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda ularning innovatsion faoliyatları alohida o'rın tutadi, innovatsiyalarni tatbiq etishga pedagoglarning tayyorlik darajalari ularning kasbiy rivojlanishlarini ta'minlashning asosiy shartidir.

Bugungi kun pedagogika zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallaganligi yetarli emas, endi pedagoglar faoliyatini baholashning asosiy mezoni ularning innovatsiyalarni tatbiq etishga tayyorliklari turadi.

Pedagoglik kasbini tanlagan har bir inson buyuk ma'rifatparvar, mutafakkir o'qituvchi Abdulla Avloniying "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrulmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitidur" hamda "Eng yomon kishilar ilmga amal qilmaydigan kishilardir. Agar tarbiya qiluvchi muallim olim bo'lib amalsiz bo'lsa, bu shogirdlar axloqiga yomon tasir ko'rsatadi" - degan fikrlarini doim yodda saqlashi va amal qilishi lozim. Zero, xalq pedagogikasiga tayangan holda yozilgan "Turkiy guliston yohud axloq" kitobida, muallif, tarbiya tug'ilishdan boshlanadi va hayotning oxirigacha davom etadi deydi hamda o'qituvchining ta'limga, iste'dodiga, dunyoqarashining kengligiga, shaxsiyatiga katta ahamiyat beradi. O'quvchining fikr-lash kuchi va kengligi o'qituvchining qarashlari kengligiga bog'liqligi, agar ustozlarning so'zлari ularning ishlariga zid bo'lsa, demak, shogirdlar bunday axloqiy ta'limgotlarga ishonishmasligini ta'kidlaydi.

Qaxramon IBADULLAYEV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

“Maktabgacha ta’lim” fakulteti dekani, fizika-matematika fanlari nomzodi

## O’QUV JARAYONI VA O’QUV-USLUBIY FAOLIYATNI MODERNIZATSİYALASH

### Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim mакtablaridagi pedagogik faoliyatni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda o'quv jarayonini modernizatsiyalash to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Zamonaviy talablar, pedagogik faoliyat, zamonaviy jamiyat, innovatsion mакtab, o'quv jarayoni.

В данной статье рассматривается организация педагогической деятельности в общеобразовательных школах исходя из современных требований и модернизации образовательного процесса.

**Ключевые слова.** Современные требования, педагогическая деятельность, современное общество, инновационная школа, образовательный процесс.

This article discusses the organization of pedagogical activity in secondary schools based on modern requirements and the modernization of the educational process.

**Key words.** Modern requirements, pedagogical activity, modern society, innovative school, educational process.

**U**chinchı Renessans davrida yangi O'zbekistonning barcha jabhalarda – ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va madaniy istiqbolini hamda rivojlangan davlatlar orasida yuqori reytingga ega bo'lish yo'lidagi islohot va innovatsiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Jahan hamjamiyatida yuksak iqtisodiy-ijtimoiy darajaga ega mamlakatlar tajribalarini o'rganish, o'rganilgan tajribalarini milliy shart-sharoitlarga moslashtirish va qo'llab ko'rish hamda milliy va xalqaro intellektual resurlardan imkoniyat sifatida foydalanib, jamiyat hayotini isloh qiladigan innovatsiyalarga erishishni talab etadi.

Davlat rahbarining “Avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Yangi O'zbekiston – mакtab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g'oya asosida zamonaviy mакtab yaratish, xalqaro standartlarga javob bera oladigan milliy o'qitish tizimini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Texnika-tehnologiya, ilm-fan va o'qitish, ta'lim va tarbiya, ishlab chiqarish va xizmat ko'satish, sog'liqni saqlash sohalarining sayqallanishi va o'sib borishi rivojlangan davlat hamda zamonaviy jamiyat qiyofasini aks ettiradi.

Zamonaviy jamiyatni o'z sohasining yetuk mutaxassisasi, kasbiy malakasi yuqori,

<sup>1</sup> Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag'ishlangan nutqi://https://daryo.uz/k/2020/12/07/shavkat-mirziyoyev-o'zbekiston-xalqini-konstitutsiya-qabul-qilinganining-28-yilligi-bilan-tabrikaldi/.

---

boy tajriba va mahoratga ega, islohotlarni qabul qila oladigan va amalga oshiradigan kadrlargina barpo etadi. Shunday ekan, ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim bosqichini davrning mazkur talabini inobatga oлган holda o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, o'quv jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarda dastur talablari asosida fanga oid yangi bilimlarni o'zlashtirish, intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi shakl-uslub va vositalariga tayanib o'qitish hamda o'quv jarayonini tashkil etish natijasida kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyatları rivojlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy maktablardan o'quvchining dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib shakllantirish, bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olib, uning individualligini namoyon etishi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishi va o'z-o'zini nazorat qilishi, tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish, xalqaro standartlarga raqobatbardosh qilib ta'lim berish uchun sharoitlar yaratish talab etiladi.

Umumta'lim maktabi shaxsning aqliy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga zamin yaratadi, o'quvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishiga, o'z qobiliyatlarini namoyon qilishni o'rgatadi.

Boshlang'ich maktabning asosiy vazifalari – bola shaxsining ilk shakllanishini ta'minlash, uning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, bilim olish istagi va ko'nikmasini shakllantirish, o'qish, yozish, hisoblash bo'yicha mustahkam ko'nikmalar hosil qilish, muomala odobi, o'z fikrini bayon etish va jamoada hamkorlikda ishlash tajribasiga ega bo'lishga ko'maklashishdan iborat. Ta'limning mazkur bosqichida bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olib, umumiy bilim darajasini aniqlash, bilishlari orqali bilmasliklarini o'rgatish, ijodkorlik qobiliyatlarini hamda mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'limdan keyin o'quvchilarga umumiy o'rta ta'limga oid bilimlar beriladi. O'quvchilarga ta'lim olishni davom ettirish uchun, insonning ijtimoiy kelib chiqishi, naslnasabi, kelajakdagi mehnat faoliyati, xarakteridan qat'iy nazar uni jamiyat hayotiga to'la moslashishi va ijtimoiylashishi uchun zarur bo'lgan umumiy o'rta ta'lim berilib, hayotda mustaqil yashay olishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun zamin yaratiladi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix, ona tili, adabiyot, chet tillari kabi o'quv fanlari o'quv davrining 80 foizini o'z ichiga oladi. Ushbu fanlarni o'zlashtirish o'quvchilarning jamiyat hayotiga to'la moslashish va ijtimoiylashish uchun zarur bo'lgan bilimlarga ega bo'lish imkonini beradi. Ta'limning umumiy o'rta ta'lim bosqichi mifik tab o'quvchilari qobiliyatlarining rivojlanib borishi, hamda qiziqishlari asosida kasbga yo'naltirishi bilan ahamiyatga ega. Ertangi kunimiz davomchilari ta'lim-tarbiya oladigan mifik tab har bir shaxs kamoli uchun poydevor vazifasini bajaradi. Mifik tabda o'quvchiga ta'lim va tarbiya beriladi. Shu o'rinda ta'lim va tarbiya tushunchalariga izoh keltirmoqchimiz:

1) ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

2) tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Ta'lim to'g'risidagi qonunda ta'lim berish bosqichlari, ya'ni ta'lim turlari quyidagi-cha berilgan:

- mifik tabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot ishimiz obyekti bo'lgan umumiy o'rta ta'lim quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:
- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim – ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikr lash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek, ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi<sup>2</sup>.

#### O'quv jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatlari

O'quv jarayoni – bu ma'lum bir o'quv tizimining chegaralarida, o'qituvchilar va o'quvchilarning maqsadga erishish va individual shaxsiyatning alohida fazilatlarini o'zgartirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan, ishlab chiqaradigan maxsus yaratilgan.

Jarayon (prospus) – "Reklama" degani, avval, izchil aniq davlat o'zgarishi, biron narsaning rivojlanishi; ikkinchidan, har qanday natijaga erishish uchun ketma-ket harakatlarning kombinatsiyasi.

Ta'lim jarayonining asosiy bo'limi – bu o'quv jarayoni. "O'quv jarayoni" tushunchasi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga maqsadli shaklli ta'sirning ahamiyati borligiga ega. "O'quv jarayoni" tushunchasi ataylab tashkil etilgan ma'rifiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

#### O'quv jarayonining vazifalari

1. Motivli yo'nalishni aniqlash kognitiv faoliyat o'quvchilar.
2. Talabalarning kognitiv faoliyatini tashkil etish.
3. Ruhiy ko'nikmalar, tafakkur, ijodiy xususiyatlarning shakllanishi.
4. Kognitik bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni doimiy ravishda takomillashtirish.

#### O'quv jarayonining asosiy funksiyalari:

1. Ta'lim funksiyasi. Amaliy kognitiv faoliyatni rag'batlantiruvchi yo'nalish va tajriba shakllantirishni o'z ichiga oladi.

2. Ta'lim funksiyasi. Bu shaxsning ayrim fazilatlari, xususiyatlari va munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

<sup>2</sup> Mahmudov M.H. Ta'lim etaloni. –Buxoro, 1999. –5-b.

---

3. Rivojlanayotgan funksiya. Bu shaxsning aqliy jarayonlari, xususiyatlari va munosabatlarini shakllantirish va rivojlanishini anglatadi.

O'qituvchi – o'quvchi orasidagi munosabat hamda o'zaro hamkorlik o'quv dasturlari va o'quvchining olgan bilimlari doirasida amalga oshirilib, o'quv jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirish uchun imkoniyat yaratadi. O'quv jarayoni muhim didaktik birlik hisoblanib turli adabiyotlarda quydagicha ta'rif berilgan.

O'quv jarayoni – bu dunyoning ilmiy manzarasini o'z mazmunida aks ettiruvchi, bilimlarni tartibga solish va uzatishga qaratilgan, mazmun, shakllar, vositalar, o'qitish usullarini ularning o'zaro bog'liqligida birlashtirgan va o'quvchilarning bilishiga qaratilgan yaxlit didaktik tizim.

O'quv jarayoni – bu pedagogik tizim bo'lib, ta'lif va tarbiya maqsadlarini amalga oshiradigan, hamda o'qituvchi va o'quvchilarning uyushgan o'zaro hamkorligi.

O'quv jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadli, o'zaro ta'sir etish va aks ettirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarga ta'lif berish, rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari hal etiladi.

O'quv jarayoni – bu o'quv harakatlarining pedagogik jihatdan asoslangan, maqsadli, izchil, uzluksiz tarzda tashkil etish bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarga bilim berish, qobiliyatlarini rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari hal qilinadi. O'quv jarayoni subyektlari: o'qituvchi va o'quvchi o'zaro aloqadorlik va hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Ta'lif berish ishlari asosan, o'quv jarayonida amalga oshiriladi. O'quv jarayonini didaktik jihatdan tavsiflashda bu jarayonda o'zlashtiriladigan o'quv materialllarini aniq strukturalashtirish va shu asosda o'quv jarayonining tarkibiy qismlari haqida fikr yuritish mumkin. O'quv materialllari o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tanlanadi va muntazam yangilanadi. O'quv jarayonida o'qituvchi o'quv materialllarini o'quvchiga izohlab, tushuntirib, har bir darsdan ko'zda tutilgan ta'lif-tarbiyaviy maqsadlarga erishadi. Buning uchun o'qituvchi o'zida mavjud bo'lgan bilimlar hamda pedagogik mahoratini ishga soladi. O'qituvchi mazkur jarayonda o'quvchining ijtimoiy tajribasi, qiziqishlari va umumiy bilish darajasidan unumli foydalana olishi lozim.

### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag'ishlangan nutqi// <https://daryo.uz/k/2020/12/07/shavkat-mirziyoyev-o'zbekiston-xalqini-konstitutsiya-qabul-qilinganining-28-yilligi-bilan-tabrikladi/>.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni: –T., 2020-yil 23-sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

3. Mahmudov M.H. Ta'lif etaloni. –Buxoro, 1999. –5-b.

4. Safarova R.G'. Milliy tiklanish sharoitida O'zbekiston maktablarida ona tili ta'limi nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. dis... –T., 1998. – 255-b.

5. Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психология воспитания. Книга для всех, кого любят детей. – М.: ТЦ Сфера, 2000. – С.208.

6. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта. – М.: Знание, 1980. – С.90.